



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# GERMANY

## CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
SCIENCE, ENGINEERING AND  
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:**  
a collection scientific works of the International scientific conference –  
Hamburg, Germany, 2026 Issue 6

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian,  
Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



## Xizr obrazining xalq tafakkuri va badiiy adabiyotdagi poetik talqini”

Mamajonova Ruhshona A’zamjon qizi

Farg’ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xizr obrazining mifologik asoslari, uning xalq og’zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotdagi badiiy talqini yoritiladi. Xizr timsolining qadimiy e’tiqodlar, homiylik, hayotbaxshlik va ezgulik tushunchalari bilan bog’liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o’zbek folklori namunalarida, xususan, dostonlar va mumtoz adabiyot namoyandalari ijodida Xizr obrazining tutgan o’rni, uning ramziy-ma’naviy vazifalari ochib beriladi. Maqolada Xizrning yo’l ko’rsatuvchi, madadkor va najotkor timsol sifatidagi badiiy xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

**Kalit so’zlar:** Mifologik obraz, Xazara, shomonizm, Xizr umri, muborak maktublar, Ilohiynoma, Ibrohim Adham, Xamsa

Mifologik obrazlar - mifologik dunyoqarash hosilasi bo’lib, ular ibtidoiy insonning mental faoliyati jarayonida uning qiziqishi va bilish ehtiyoji natijasida o’zi uchun mavhum bo’lgan hodisalar (masalan, tabiat voqealari, turli kasalliklar)ni idrok etishi, tushunishi va umumlashtirishi orqali yuzaga kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvur-tushunchalari, e’tiqodiy qarashlari, diniy-mifologik dunyoqarashi zahirida kelib chiqqan hamda o’zida mifik inonchlar mohiyatini ifoda etgan an’anaviy personaj yoki obraz „mifologik personaj“ yoki „mifologik obraz“ deb yuritiladi. Xizr obrazining genetik ildizlari qadimiy kultlar va inonchlar bilan aloqadordir. „Xizr“ so’zi arab tilidagi „Xazara“ („doimiy yashillik“) so’zidan kelib chiqqan. Xizr – turkiy xalqlarning suv, olov, issiqlik, bahor, hosildorlik, yashillik va hayot suvi to’g’risidagi mifologik tasavvurlari asosida yaratilgan. Ozarbayjon olimi M Seyidov „Xizr“ so’zining etimologiyasini „olov“, „o’t“ (o’simlik) so’zlari bilan aloqador ekanligini qayd etadi. O’zbek folklorshunoslaridan M Afzalov Xizr obrazining qadimgi pir-homiylar to’g’risidagi xalq qarashlari zahiridan o’sib chiqqanligini. G’ Akramov esa uning ajdodlar homiyligi bilan bog’liq e’tiqodlar va shomonizm ta’sirida yuzaga kelganligini ta’kidlagan. B Sarimsoqov „kinnachilikning pirlaridan biri Xizr bo’lib, islomga qadar juda ko’p turkiy xalqlar unga sig’inganlar“ deydi. F Nurmanovning Xizr obrazi genezisi va uning o’zbek folkloridagi talqini masalasiga bag’ishlangan tadqiqot ishida islom diniga e’tiqod qiluvchi turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan bu timsol mifologik homiy, madadkor ruh, chol qiyofasidagi g’ayrioddiy ko’makchi sifatida tasavvur qilingani aytiladi. Umuman aytganda, xalqimiz orasida Xizr hamisha ezgu homiy sifatida tasavvur qilinadigan mifologik personajdir. Xizrning abadiy yashashi, ya’ni hech qachon o’lmasligi bilan bog’liq mifologik qarashlar „Xizr umri“ tushunchasida ham o’z aksini topgan. O’zbek mifologiyasida tabiatning



erta bahorgi uyg'onishi, qor va muzlarning erishi hamda o'simliklarning o'sa boshlashi ham Xizr obrazi bilan bog'lab tasavvur qilingan.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida Xizr asar qahramonlarining piri, suyanchi, himoyachisi sifatida: Qisasi Rabg'uziy, Nishotiyning „Qushlar munozarasi“ , „Muborak maktublar“da namoyon bo'ladi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida tasvirlanishicha, Xizr Go'ro'g'lining homiysi: „Bek bo'lganning bo'lmas ekan havosi, Topilgay-da endi dardning davosi. Go'ro'g'li shunday tashlanib qolganda, Bolam, deb keldi er Xizr bobosi“. Xalq qo'shiqlarida ham Xizrning insonlarni qo'llash, suyash, ularga pirlilik qilishiga ishora qilinuvchi misralar uchraydi: „Birda-ikkida to'yda aytganim yo'q, yor-yor, Qo'y bergan xo'jayin Xizr o'zing qo'y, yor-yor, O'lan aytib to'ylarni gul qilasiz, yor-yor, Bu Xizrni o'zingizga pir qilasiz, yor-yor“.

Ozarbayjon olimi M Saidov Xizrni turkiy tilli xalqlarga taalluqli timsol deydi. Xizrni iliqlik, o't, olov bilan bog'laydi. Uningcha, Xizr yo'lda qolgan, adashganlarga yordam beradi. Fariddun Attorning «Ilohiynoma» asarida «Ibrohim Adham va Xizr alayhissalom hikoyati» keltirilgan. Hikoyatda Ibrohim Adham ismli ulug' podsho a'yonlari bilan o'ltirganda, bir tuyachi chol qiyofasida Xizr kirib keladi. Ijzatsiz kirgan cholni ko'rib Ibrohim Adhamni jahli chiqadi. Shunda Xizr unga taklifsiz kirganining sababini izohlab shunday javob beradi. Xizr dediki: „Bu karvonsaroydir, yo'lovchi bir qo'nib o'tmoqqa joydir“. Ibrohim bu muazzam saroy qanday qilib rabot bo'lishi mumkin deb jaxllanganida, Xizr: „ Bu go'zal saroylarda necha kishilar shoxlik davrini surishgan, kun kelib joningni Allohga topshirganingda sendan ham qoladi. Shu boisdan bu yer rabotdan o'zgasi emas“ - deb javob beradi. Bu gaplardan so'ng Ibrohimning qalbi yonib shoxlikdan voz kechib, Xizrga ergashadi. Taqvo yo'liga kiradi. Xizrga ergashib, bo'ldi ravon ul, Ki mardlar ichra mardi paxlavon ul. Hikoyatda dunyo doimiy joy emasligini eslatish bilan birga nasihat agar aniq nishonga tegsa qanday kuchga egaligi ta'kidlanmoqda. Xizr alayhissalom Ibrohim Adhamga shunday so'z o'yini qilib qalbiga ta'sir qiladigan nasihat qildi. Natijada Ibrohim Adham nasihatdan foyda topdi. Mumtoz adabiyotimizda bo'lganidek, „Xamsa"da ham ko'p bor nomi tilga olingan ulug' zotlardan biri Xizrdir. Xizr, u kishiga xos sifatlar, bu obrazning yozma adabiyotdagi o'rni, poetik vazifalari, xalq og'zaki ijodi asarlari va mumtoz adabiyotda uchraydigan Xizr xususida ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan. Yuqorida qayd etganimizdek, Xizr yashillik bilan aloqador. „Farhod va Shirin" dostonidan olingan mana bu baytda Xizr kiyimining yashilligi nazarda tutilgan: Navoiy dostonning oltinchi bobida „Qalam vafida" gapiradi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarni ulug'laydi. Xusrav Dehlaviyni madh etib, uni „Guharez", „Hinduyizodi shakarrez" („Hinduyizod-hindistonlik Xusrav Dehlaviy"), „Shirin maqol", „bulbul" deya nisbatlaydi. Uni Xizr payg'ambar deb biladi. „Hulla axzar" - yashil to'n degani. Ana shu birikma Xizr kiyimiga ishora qilmoqda. „Sab'ai sayyor"da ham shu mazmundagi bayt bor: „Xizr monand



sabzadin rangi Sabzasi suyi ko'zgusi rangi". Dostonning yigirma beshinchi bobi uchinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyati haqida. Unda Misr mamlakatidan Sa'd afsonasi keltiriladi. Sa'd o'z uyida turli kishilarni, musofirlarni ziyofat qilib, qiziq sarguzashtlarni tinglardi. Bir kuni ikki bo'yig'a nazm solg'on hulla axzar, Dema to'ti, degil Xizri payambar g'arib keladi. Ular boshdan oyoq yashil kiyimda edi. Musofirlar Shahrisabzdan ekanliklarini, yashillikka burkangan yurtdanliklarini aytishadi. Yuqoridagi bayt ham Shahrisabz ta'rifida. Shaharning yashilligini Xizrmonand, ya'ni sabzrang deya uqtirishmoqda. Sa'd ko'rgan tushining ma'nosini topish uchun g'orda necha yildan buyon maqom tutgan bir pir bilan uchrashadi. Pir boshidan o'tgan voqealarni gapirib beradi. Donishmand bu zot tush ko'rib, ta'birini topolmay qiynalgani, jonidan umid uzganida bir pir duch kelgani, uning „xirqasi axzar“ - kiyimi yashil, „aso axzaro“ - hassasi yashil bolib, xuddi Xizrga o'xshashini aytadi. Bu yerda ham kiyim va aso rangi Xizr ko'rinishiga o'xshatilgan. Dostonning bir o'rnida „Xizr yanglig' libosi rayhoni“ deyilgan. Bu ham yashillikka ishora. „Saddi Iskandariy“ da Iskandarning Hindistonga safari haqida gapiriladi. Hindistonning go'zalligi madh etiladi. Dehli yaqinidagi Nigor o'rmoni ta'riflanar ekan, Navoiy shunday baytni keltiradi: O'rmon, daraxtlar, undagi qushlar haqida gapirilib, har bir daraxtning yashilligi Xizrga qiyoslanmoqda. „Xamsa“ da Xizr, u kishi ega bo'lgan tiriklik suvi kiritilgan baytlar ham anchagina. Ko'pgina manbalarda Xizr payg'ambar, ba'zi o'rinlarda avliyo, ba'zan esa mifik obraz tarzida talqin etiladi. Bizningcha, Xizr ega bolgan „obi hayot“, „tiriklik bulog“ tushunchalari mifologik tasavvurlar bilan bog'liq. Hayot suvi, „obi hayot“, uning zulmat olamida ekanligi, bu suvni Xizr, Ilyos va Iskandar izlagani haqidagi tafsilotlar boshqa o'rinlarda keltiriladi. „Xamsa“ da Xizr bilan bog'liq voqealar bisyor.

Xizr ega bolgan sifatlardan yana biri hamrohlik, odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, og'ir damlarda suyanch bolish. „Xamsa“ da ana shu mazmundagi misralar ham uchraydi. Bu narsa Xizr so'zi mohiyati bilan ham aloqador. Tilshunos olim N Husanovning qayd etishicha, „Xizr matnlarda hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo'l ko'rsatuvchi, yashil, daraxt, ma'shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz“ kabi ma'nolarni ifodalaydi".

Yozma adabiyotning negizida xalq og'zaki ijodining boy merosi yotadi. Aksariyat obrazlarning etimologiyasiga nazar tashlasak, ular xalqning badiiy ijod mahsulidir. Shular jumlasida mumtoz adabiyotda juda keng qo'llanadigan Xizr obrazi ham mifologik qahramonlardan biriga aylangan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qur'onda Xizr alayhissalomning abadiy tirik ekanliklarini isbotlovchi oyat yo'q. Xizr alayhissalom Allohning solih bandasi va u hamma qatori vafot etgan. Obi hayot haqidagi fikrlar esa mifologiya bilan bog'liq. Ta'riflarda Xizrning bir qancha sifatlari bor ekanligi qayd etiladi. Jumladan, uning boqiy hayot ekanligi, hamrohlik qiluvchi avliyo, og'ir damlarda yordamga keladigan najotkor.